

## BOLALAR NAFAS YO'LIDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 2-bosqich 207-guruh talabalari

Ismoilova Gullira To'raqul qizi

Donaboyeva Yulduz Jonibek qizi

Abdulqayumova Mohinur Obid qizi

**Annatatsiya:** Ushbu maqolamizda bolalar nafas yo'li va a'zolarining zararlanishi, yo'tal xurujli. Yosh bolalarda nafas yo'lining buzulishi, ya'ni hayotining birinchi kunlaridan boshlab kasallanishi xaqida fikir mulohaza yuritamiz.

**Kalit so'zi:** patoginez, bronxiolit, inkubatsion davr, prodromal davr, ko'kyo'tal, gipoksiya.

**Аннотация:** В данной статье дети с поражением дыхательных путей и органов, приступами кашля. Речь идет о нарушениях дыхания у детей раннего возраста, то есть они болеют с первых дней жизни.

**Ключевые слова:** патогенез, бронхиолит, инкубационный период, продромальный период, коклюш, гипоксия.

**Annotation:** In this article, children with respiratory tract and organ damage, coughing attacks. We are thinking about respiratory disorders in young children, that is, they get sick from the first days of their life.

**Key words:** pathogenesis, bronchiolitis, incubation period, prodromal period, pertussis, hypoxia.

Bolalarda burun bo'shlig'i nisbatan tor bo'lib, uning tubi shunday bukilganki, til halqum orqa devorida kattalarnikiga nisbatan ko'proq yuzada tegib turadi. Shuning uchun kislorod ingalyatsiyasida yoki niqob yordamida anesteziya qilinganda, yuqori nafas yo'llarining erkin o'tkazuvchanligini ta'minlashda qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin. Yosh bolada burun yo'llari katta odamnikiga nisbatan tor bo'ladi va shu sababdan burun shilliq qavati shishganda yoki uning sekretsiyasi oshganda, burun yo'llarining to'liq berkilishi yuz beradi. Chaqaloq tezlik bilan burun orqali nafasdan og'iz orqali nafas olishga o'ta olmaganligi sababli, havo yetishmasligi yuzaga kelishi mumkin<sup>1</sup>. Ushbu havoni yetishmovchiligidagi bola og'iz bo'shlig'idan nafas oladi va natijada og'iz va tomoq yo'li orqali sovuq havo olishi natijasida qizarish shish kabi xolatlar yuzaga keldi.

Bolalarda nafas a'zolari kasalliklari bir necha guruhga bo'lingan bo'lib, ularga infektion-yallig'lanish bilan kechadigan o'tkir va surunkali kasalliklar, allergik kasalliklar, chaqaloqlik davrida rivojlangan, tug'ma va nasliy kasalliklar kiradi.

<sup>1</sup> [https://tashpmi.uz/wp-content/uploads/2020/08/darslik\\_fbx\\_1\\_tom-min.pdf](https://tashpmi.uz/wp-content/uploads/2020/08/darslik_fbx_1_tom-min.pdf)

Infektion-yallig‘lanish bilan kechadigan o‘tkir va surunkali kasalliklarga yuqori va pastki nafas a’zolari kasalliklari kiradi. Yuqori nafas a’zolaridan ko‘proq rinit, faringit, tonsillit, otit, sinusit, laringit; pastki nafas a’zolari kasalliklaridan esa traxeit, bronxit (o‘tkir, surunkali, obstruktiv, qaytalanuvchi), bronxiolit, pnevmoniya, plevrit, bronxoektatik kasalliklar uchraydi. Allergik kasalliklarga bronxial astma, chaqalog‘lik davrida rivojlangan kasalliklarga bronx-o‘pka displaziysi, Vilson-Mikiti sindromi kabi xastaliklarni kiritish mumkin.

Bolalardagi ko‘plab kasalliklar nasliy kasalliklar bo‘lishi bilan birga o‘pkaning idiopatik diffuz fibrozi, idiopatik o‘pka gipertenziysi, o‘pkaning alveolyar mikrolitiasi, kartagener sindromi, mukovissidoz, alfa-1 antitripsin tanqisligi kabi qator kasalliklarni bolalarda uchratish mumkin.

Bolalarda tug‘ma kasalliklarga esa o‘pkaning rivojlanish nuqsonlarini kiritishimiz mumkin. Ularning xavflilik darajalari ham turlicha. Albatta, yuqorida tilga olingan har bir xastalikning xavflilik darjasи har xil. Ba’zilari yengil shaklda kechsa, aksariyatining xavflilik darjasи ancha yuqori. Nafas olish tizimining asosiy vazifasi organizmni kislorod bilan ta’minalashdir. Bu tizimning biror bo‘g‘inida shikastlanish kuzatilsa, butun tizim ishdan chiqishi mumkin, bu esa organizmda kislorod yetishmasligi (gipoksiya)ga va undan keyin qaytarib bo‘lmaydigan jarayonlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda bola organizmida gipoksiyaning kelib chiqishiga to‘xtalsak, birinchidan, bu bolaning nafas yo‘llari anatom-fiziologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, nafas yo‘llari o‘ta sezuvchan bo‘lib, turli infeksiya, allergen yoki boshqa qo‘zg‘atuvchiga darrov gipersezgirlik reaksiyasini berib, nafas siqishi, hansirashga olib kelib, bolaning xayotiga xavf tug‘dirishi mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan kasalliklarning barchasi ozmi-ko‘pmi bolaning hayotiga xavf tug‘diradi.

Bolalarda uchrab turadigan ko‘kyo‘talning kelib chiqishi nafas yo‘lining juda xavfli bakterial infeksiyasi hisoblanib, uning qo‘zg‘atuvchisi Bordetella pertussis bakteriyasidir. Infeksiyaga yo‘liqqan kishi yo‘talishi yoki aksa urishi oqibatida havoga mikrob tarqaladi va shu yaqin atrofda nafas olgan odam zararlanadi.<sup>2</sup> Buning sabablaridan biri shuki, 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarning atigi 40% faol emlanadi, qolganlari esa turli sabablar tufayli emlanmay qoladi. Patogenezi. Ko‘kyo‘tal mikroblari nafas yo‘llarining silindrli epiteliysida o‘rnashib ko‘paya boshlaydi. Bu davrda mikroblarning ko‘pi nobud bo‘ladi va toksin ajratadi. Ajralgan toksin asab sistemasiga, qon tomirlariga, nafas a’zolariga ta’sir qiladi. Buning natijasida bronxlar devorlarining mushaklari qisqarib, bronxospazmga olib keladi, periferik qon tomirlari ham torayadi, nafas mushaklari spastik qisqaradi. Bularning hammasi xurujsimon yo‘talga va nafas faoliyatining keskin buzilishiga sabab bo‘ladi.

<sup>2</sup> [www.m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle](https://m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle).

Bolalarning kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish o‘ta zarur. Bemor yetarli darajada uqlashi, yo‘tal xurujini paydo qiluvchi har qanday ta’sirlarni bartaraf qilish. Uni ovqati yoshiga hamda umumiy ahvoliga mos keladigan vitaminli kuchli va to‘q tutadigan bo‘lishi lozim. Bolalardagi ko‘kyo‘talni davolash paytida bemor bolalarga vitamin A, vitamin K va askorbin kislotasi berish tavsiya etiladi. Periferik qon aylanishini yaxshilash maqsadida ularga 10-12 kun davomida vitamin PP (nikotin kislotasi) tayinlanadi. Bolalardagi ko‘kyo‘talni davolashda antibiotiklar tavsiya etiladi. Bolalardagi yo‘tal davrida o‘tkir bronxoobstruksiya, o‘pkada gazlar almashinuvining buzilishi, nafas qisish xuruji (astmatik status) va boshqa holatlar o‘tkir nafas yetishmovchiligi natijasida bolaning hayoti uchun o‘ta xavfli hisoblanadi. Bolalardagi pulmonologik kasalliklarning yengil darajalarini uy sharoitida davolash imkonи ham mavjud. Yaniy bolalarda nafas olish a’zolari kasalliklarining yengil darajasini davolash uy sharoitida ham tashkil qilsa bo‘ladi. Davolash jarayonida sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan davolash standartlari asosida uchastka shifokori nazoratida olib borilishi tafsiya etiladi.

Ota-onalar bolasiga o‘z vaqtida dorilarni berib, kasallikning kechishi haqida oilaviy poliklinikaga shifokoriga ma’lumot berib borishi kerak. Uyda xonalarni tez-tez shamollatib, tozalikka rioya qilib, bolaning yoshiga mos vitamin va minerallarga boy mahsulotlar bilan to‘g‘ri ovqatlantirish, ko‘p suyuqlik ichirish talab etiladi. Bolaga to‘g‘ri nafas olishni, va nafas olish gimnastikasini o‘rgatish lozim. Surunkali kasalliklari bor bolalarga esa kasallik xuruji paytida uy sharoitida ingalyatsiya(dori moddalarini nafas yo‘llariga kiritish)ni yoki nafas olishga yordam beruvchi qurilma (nebulayzer)dan foydalanishni ham o‘rgatish kerak. Bola tuzalgandan keyin unga shaxsiy gigiyena qoidalarini, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishni tushuntirib borish zarur bo‘ladi. Kasallik davrida to‘g‘ri hayot tarzini yuritish juda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni takidlaymizkiy bolalar nafas yo‘lida uchragan kasallikni davolashning eng samarali yo‘li bu shifoxonada olib qolish. Bemor bola dam olishi, yuqori harorat kuzatilmagan vaqtida esa yengil sayr tavsiya etiladi. Asab tizimi o‘ta taranglashishi bois jahlni chiqaruvchi barcha omillardan saqlanadi. Xonadagi chiroq nuri ham yumshoq va tarqoq bo‘lishi kerak. Baland ovozdagi musiqa, suhbat yoki televizor shovqini taqiqlanadi. Quyida tezroq sog‘ayishga oid bir necha tavsiyalar quydagicha. Yuqori harorat natijasida chanqash hissi oshishiga yo‘l qo‘ymaslikka kerak. Eng yaxshi tanlov-suv, meva sharbati va quruq qaynatma sho‘rva. Bemor bolaga tez-tez oz-ozdan tanovul qilishini nazorat qilish zarur. Ko‘p ovqat yeyish yo‘tal vaqtida qayt qilishga olib kelishi mumkin. Bemor bola bilan bo‘lgan jarayondan keyin qo‘lingizni sovunlab yuvning, tibbiyot niqobidan foydalaning va suhbat davomida og‘zingizni salfetka bilan yopib oling.

Infeksiya tarqalishini to‘xtatish uchun shfokor antibiotiklar yozadi. Ular bakteriyalarni parchalaydi, ammo kasallik alomatlarini bartaraf etolmaydi. Haroratni tushirishda retsepsiz beriladigan og‘riq qoldiruvchilar paracetamol yoki ibuprofen qabul qilish mumkin.

### Foydalanolgan adabiyotlar

1. M.M.Aliyev Bolalar xirurgiyasi I tom. Toshkent Yangi nashr 2018-yil.
2. N.H.Abdullayev, H.Yo.Karimov, B.O‘.Irisqulov, “Patalogik fiziologiya” “Yangi asr avlod” NMM, 2008 y.
3. M.A. Jo’rayeva “Dorivor o‘simpliklar atlasi” NOSHIR nashriyoti 2019-yil
4. [www.m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle](http://www.m.kun.uz/uz/news/category/lifestyle).
5. <https://andrology.uz/site/maqola?id=81>
6. <https://zamin.uz/uz//45829-buyraklardan-toshlar-va-tuzlarni-chiqarib-yuborishning-usullari.html>